



XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 18 - sentabr

VI-60-79-11-154-K/23

Buvayda tuman hokimligi

Buvayda tuman mahalliy budgetining 2023-yil II-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28- va 126-moddalariga va Qo‘qon tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 4-apreldagi 4-1502-2302/398-sonli ishi bo‘yicha ijro varaqasi ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi rahbari A.Ergashevning Buvayda tuman mahalliy budgetining 2023-yil II-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buvayda tuman hokimligining “Farg‘ona haqiqati” gazetasi va “Ferganskaya pravda” MChJdan yuzaga kelgan qarzdorligini bartaraf etish maqsadida, tuman mahalliy budgetining 2023-yil II-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan **23 790 000** (yigirma uch million yetti yuz to‘qson ming) so‘m mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.G‘aniev)ga:

- moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tegishli iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etishini nazoratga olish;

- ajratilgan mablag‘larni maqsadli yo‘naltirish va undan samarali

foydalanilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman iiqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag'lar doirasida harajatlar smetasini belgilangan tartibda ro'yhatga olish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (Sh.Soliyev)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining "Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari" bo'yicha doimiy komissiya raisi (H.Akbarov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.